**XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING**
**Q A R O R I**

2022 - yil 15 - aprel VI-59-86-7-92-K/22 Oqdaryo tumani hokimligi

# Tuman mahalliy budjetining 2022-yil I chorak yakunlari bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-, 126-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, navbatdan tashqari ellik to‘qqizinchi sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning tuman mahalliy budjetining 2022-yil I chorak yakunlari bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil I chorak yakunlari bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan ishlar va ajratiladigan mablag‘ miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Shakarov)ga, ajratilgan mablag‘lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov)ga ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi oʻrinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **Asatovich Q. Sh.**

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining
2022 yil 15 apreldagi
VI-59-86-7-92-K/22-son qaroriga
1-ilova

**TTuman budjetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori**

| **T/R** | **Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi** | **Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi** | **Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘mda)** | **Izoh** |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Tuman hokimligiga | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi "Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 250-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida "Temir daftar" jamg‘armasiga | 481050,0 | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning 2022-yil 13-apreldagi 02/04-101-sonli bildirgi xati hamda tuman Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 14-apreldagi 2/06-38/225-sonli xulosa xatlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi X.S.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Samarqand viloyat bo‘limining 2022-yil 7-apreldagi 29/21-08 (722) 16.1M/1506-sonli va 29/21-08 (722) 16.3M/1507-sonli mutaxassis fikri |
| | | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11- martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 132-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida "Yoshlar daftar" jamg‘armasiga | 481050,0 | |
| | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5020-sonli qarorini ijrosi ta’minlash maqsadida "Ayollar daftari" jamg‘armasiga | 481050,0 | |
| | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishga | 962100,0 | |
| | | Oqdaryo tuman hokimining 2018-yil 14-iyundagi "Turar va noturar bino inshootlarini buzishga ruxsat berish hamda bo‘shagan yer maydonini Oqdaryo tuman hokimligi zaxirasiga olish to‘g‘risida"gi 1298-Q-sonli qaroriga asosan Rasulova Oydinga tegishli bo‘lgan noturar joy binosini buzish uchun kompensatsiya to‘lovlarini to‘lash xarajatlariga | 141010,0 | |
| | | Tuman hokimligi boshqaruv apparati va ayrim toifadagi xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi) va tuman moliya bo‘limining xodimlariga qo‘shimcha ustama to‘lash xarajatlariga | 77000,0 | Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari I.Narzullayevning 2022-yil 14-apreldagi 8/15-sonli bildirish xati hamda tuman Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 14-apreldagi 2/06-38/225-sonli xulosa xatlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **Jami:** | **x** | **2623260,0** | |